

## LIVERPUL SHOIRLARI IJODIDA MAKTAB POETIKASI

**Xakimova Maksadxon,***filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti**Ingliz tilini o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari**kafedrasi katta o'qituvchisi**<https://orcid.org/0000-0002-3593-4888>**email: [maqsadxonhakimova@gmail.com](mailto:maqsadxonhakimova@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Liverpool shoirlari Adrian Henri, Roger McGough va Brian Patten ijodida maktab poetikasi tahlil qilindi. Maktab obrazi xotira, hokimiyat va til deformatsiyasi orqali turli poetik modellar asosida talqin etildi. Tadqiqot lingvistik va adabiyotshunoslik yondashuvlariga tayangan holda amalga oshirildi.

**Kalit so'zlar:** maktab poetikasi, okkazionalizm, til, xotira, hokimiyat.

**Аннотация.** В статье анализировалась поэтика школы в творчестве ливерпульских поэтов Адриана Анри, Роджера Макгофа и Брайана Паттена. Образ школы интерпретировался через память, власть и языковую деформацию в различных поэтических моделях. Исследование проводилось на основе лингвистического и литературоведческого подходов.

**Ключевые слова:** поэтика школы, окказионализмы, язык, память, власть.

**Abstract.** This article analyzed the poetics of school in the works of Liverpool poets Adrian Henri, Roger McGough, and Brian Patten. The school was interpreted through memory, power, and linguistic deformation across different poetic models. The study was conducted using linguistic and literary approaches.

**Keywords:** school poetics, occasionalisms, language, memory, power.

**Kirish.** XX asr ikkinchi yarmi ingliz she'riyatining o'ziga xos jihatlarini xarakterlovchi g'oyaviy-estetik qarashlar Adrian Henri, Rojer MakGaf va Brayn Petten ijodi bilan chambarchas bog'liq. Ular ijodida maktab mavzusi markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Biroq bu maktab romantik yoki nostalgik tasvir sifatida emas, balki ijtimoiy institut, hokimiyat apparati va til shakllanishi maydoni sifatida gavdalanadi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Henri, MakGaf va Petten ijodida maktab va bolalik obrazining qanday badiiy, lingvistik va ijtimoiy mexanizmlar orqali qurilishini kompleks tahlil qilishdan iborat. Tahlilda asosiy urg'u matnning ichki poetik strukturasi, til deformatsiyalariga, okkazionalizmlar funksiyasiga hamda maktabning ijtimoiy-metaforik ma'nolariga qaratildi va natijada Liverpool shoirlari ijodi maktabni nafaqat tasvirlovchi, balki uni qayta ishlab chiqaruvchi va shubha ostiga qo'yuvchi poetik tizim sifatida namoyon etishi o'rganildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning metodologik asosi sifatida poetik tahlil, interpretativ yondashuv, diskursiv tahlil hamda qiyosiy-adabiy metodlardan foydalanildi. Maqolada lingvopoetik yondashuvdan asosida she'rlardagi okkazionalizmlar, fonetik deformatsiyalar va grafik buzilishlarning poetik hamda pragmatik funksiyalari tahlil qilindi.

Tadqiqot materiali sifatida Adrian Henrining *“In the Empty Classroom”* va *“The Phantom Lollipop Lady”*, Rojer MakGafning *“The Lesson”* va *“First Day at School”*, BraynPettenning *“Gust becos I cud not spel”* hamda *“Geography Lesson”* she’rlari tanlab olindi.

**Tadqiqot natijalari.** Tadqiqot davomida Adrian Henri, Rojer MakGaf va Brayn Petten ijodida maktab obrazi an’anaviy didaktik yoki nostalgik tasvirdan sezilarli darajada farq qilishi aniqlandi. Liverpool shoirlari maktabni faqat bilim beruvchi ijtimoiy institut sifatida emas, balki til, hokimiyat, xotira va bolalik tajribasi o‘zaro kesishadigan murakkab poetik makon sifatida talqin qiladi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, har bir shoir ushbu mavzuni individual poetik model orqali ifodalasa-da, ularni birlashtiruvchi umumiy jihat maktabning normativ va barqaror tizim sifatidagi tasavvurini dekonstruksiya qilishdir. Tahlilga tortilgan she’rlarni tushunishda eng muhim jihatlardan biri shoirlarning tilga bo‘lgan munosabatidir. Liverpool shoirlari uchun til statik va normativ struktura emas, balki doimiy o‘zgaruvchi, buziluvchi va qayta yaratiluvchi materialdir. Aynan shu nuqtada okkazionalizm, fonetik deformatsiya va semantik siljishlar muhim rol o‘ynaydi: *millionbillionwillion*, *glassrooms*, *havocwreakers* kabi birliklar yoki butunlay sun’iy konstruktsiyalar tilning normativ chegaralarini buzib, uning ichki imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu jarayonni oddiy stilistik eksperiment sifatida emas, balki hokimiyatga qarshi lingvistik strategiya sifatida ham talqin qilish mumkin. Shu bilan birga, maktab obrazining Liverpool shoirlarida doimiy ravishda muammolashtirilishi tasodifiy emas. Maktab bola ilk bor ijtimoiy intizom, til me’yorlari va bilim tizimi bilan to‘qnashadigan makondir. Shu sababli u nafaqat ta’lim maskani, balki subyektivlik ishlab chiqaruvchi institut sifatida ham ishlaydi. Bu nuqtayi nazardan maktab Fuko ta’riflagan intizomiy jamiyat mexanizmlariga yaqinlashadi: u ko‘rinarli nazorat, til me’yorlari va ijtimoiy rollar orqali individni shakllantiradi. Biroq Liverpool shoirlari bu tizimni bir yoqlama tanqid qilish bilan cheklanmaydi. Ular maktabni bir vaqtning o‘zida ham qo‘rquv, ham kulgi, ham xotira, ham tasavvur maydoni sifatida ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra Adrian Henri she’rlarida maktab ko‘pincha bo‘sh qolgan, ammo xotira orqali “jonlangan” makon sifatida namoyon bo‘lsa, Rojer MakGaf ijodida u grotesk va absurd zo‘ravonlik sahnasiga aylanadi va Brayn Petten tilning o‘zini buzish orqali maktabning ichki paradokslarini ochib beradi. Shu tariqa uch shoir bir-birini to‘ldiruvchi uch xil poetik modelni yaratadi.

Xususan, Adrian Henri she’rlarida maktab, avvalo, xotira va sezgi bilan bog‘liq, ruhlar makon tutgan maskan sifatida gavdalanadi. *“In the Empty Classroom”* she’rida bo‘sh sinfxona tasviri orqali maktab faol ta’lim hududi emas, balki o‘tgan tajribalarning aks-sadosi saqlanadigan poetik maydon sifatida ko‘rsatiladi. Tadqiqot natijasida ushbu she’rda tovush, soya va hid kabi sezgi elementlari maktabning “tirik xotira” sifatida qayta qurilishida asosiy badiiy vosita vazifasini bajarishi aniqlandi. *“The Phantom Lollipop Lady”* she’rida esa oddiy ijtimoiy figura mifologik va ruh obrazga aylantirilgani kuzatildi.

Natijada Henri poetikasida maktab insoniy aloqalar va jamoaviy xotira saqlanadigan affektiv makon sifatida talqin qilinishi ma'lum bo'ldi.

Roger MakGaf she'rlari tahlili esa maktabning grotesk va absurd talqinini ochib berdi. "The Lesson" she'rida ta'lim tizimi zo'ravonlik va intizom orqali ishlovchi absurd mexanizm sifatida tasvirlanganligi aniqlandi. Ayniqsa, *havocwreakers* kabi okkazonal birliklar o'quvchilar obrazini giperbolik darajada kuchaytirib, she'ning satirik ohangini shakllantirishda muhim rol o'ynashi kuzatildi. "First Day at School" she'rida esa bolaning maktab haqidagi qo'rquvi va begonalashuvi lingvistik deformatsiyalar orqali ifodalanganligi aniqlandi. *millionbillionwillion, glassrooms, lessins* kabi birliklar bola tafakkurining til orqali qayta qurilgan modelini yaratishi va maktabni nazorat hamda noma'lumlik makoni sifatida ko'rsatishi kuzatildi.

Brayn Petten ijodi tahlili davomida maktabning eng avvalo lingvistik hokimiyat tizimi sifatida talqin qilinishi aniqlandi. "Gust becos I cud not spel" she'rida ataylab buzilgan imlo va fonetik deformatsiyalar normativ til tizimiga qarshi poetik qarshilik shakli sifatida xizmat qilishi kuzatildi. *Figgymisgrugifooniyn* kabi sun'iy birliklar tilning referensial funksiyasini buzib, ma'no ishlab chiqarish mexanizmini savol ostiga qo'yishi aniqlandi. "Geography Lesson" she'rida esa maktabning boshqa qirrasini – tasavvur va orzu uyg'otuvchi funksiyasi ochib berildi. Tadqiqot natijalari ushbu she'rda o'qituvchi obrazi orqali bilim va real tajriba o'rtasidagi ziddiyat poetiklashtirilganini ko'rsatdi.

Tahlilga tortilgan she'rlarda maktab diskursiv markaz bo'lib, u orqali jamiyatning hokimiyat, til va bilim haqidagi tasavvurlari shakllanadi. Shu sababli Liverpool shoirlari ijodida maktab tasviri doimo ikki qutb orasida harakat qiladi: bir tomonda intizom va normativlik, ikkinchi tomonda esa o'yin, buzilish va ijodiy erkinlik. Mazkur yondashuv nazariy jihatdan M. Baxtinning karnavalesk konsepsiyasi, P. Rikyorning xotira fenomenologiyasi hamda M. Fukoning intizomiy hokimiyat nazariyalari bilan uzviy bog'liq holda talqin qilinishi mumkin. Karnavalesk nuqtayi nazaridan maktab ierarxiyalar vaqtincha buziladigan makon, xotira nazariyasi tomonidan olib qaraganda yo'qolgan tajribalarning qayta qurilgan shakli, Fuko nazariyasiga ko'ra subyektini shakllantiruvchi nazorat tizimidir. Liverpool shoirlari ushbu uch qatlamni bir-biriga qo'shib, maktabni murakkab madaniy fenomen sifatida qayta yaratadi.

**Muhokama.** Liverpool shoirlari ijodida maktab obrazining turli shakllarda namoyon bo'lishi ularning umumiy poetik strategiyasini ochib beradi. Adrian Henri ijodida maktab eng sokin, lekin eng chuqur metaforik shaklda namoyon bo'ladi: u nafaqat ijtimoiy institut, balki yo'qolgan tajribaning sezgi orqali qayta tiklangan ruhiy makon sifatida ishlaydi. "In the Empty Classroom" she'ri aynan shu poetik tamoyilning markaziy ifodasidir. She'rda hikoya qilayotgan voqelik juda sodda: bo'sh sinfxona, kechki vaqt, yorug'lik va tovushlarning sekin o'zgarishi. Ammo bu soddalik ortida murakkab semantik tizim yashiringan. Sinfxona bo'sh, biroq u aslida to'liq bo'sh emas, soyalar, hidlar va tovushlar bilan to'la. Bu paradoks Henri poetikasining asosiy tamoyilini ifodalaydi:

bo'shliq ham o'zining to'liqligiga ega. She'rda maktabning fizik elementlari asta-sekin jonlantiriladi. Doska *inky depths* sifatida tasvirlanadi, ya'ni oddiy pedagogik vosita tubsiz, noma'lum makonga aylanadi. Dezinfeksiya hidi *sulks – arazlaydi*: hidga insoniy kayfiyat yuklanadi. Yorug'likning *on/off* ritmi esa maktabni barqaror tizim emas, balki davomli uzilishlar ketma-ketligi sifatida ko'rsatadi. Bu antropomorfizatsiya orqali Henri maktabni tirik organizm emas, balki xotira tomonidan jonlantirilgan semiotik struktura sifatida quradi. She'rning eng muhim qatlamlaridan biri tovush bilan bog'liq. Pianino sadolari *stumble over their notes* tarzida tasvirlanadi. Bu yerda musiqa mukammallik belgisi emas, balki xatolik va uzilishlar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Bu holatni Baxtin karnavalesk nazariyasi orqali tushunish mumkin. Baxtinga ko'ra, karnaval madaniyatida rasmiy tartiblar vaqtincha bekor qilinadi va "past" elementlar ustunlik qiladi. Henri she'rda ham maktabning rasmiy tartibi yo'qoladi va uning o'rnini tovush, soya va xotira egallaydi. She'r oxiridagi *pigeons stalk the playground* va *the yawning gate awaits the tread of morning feet* obrazlari maktabni vaqt oralig'idagi mavjudot sifatida ko'rsatadi. U tungi sukunatda *kutib turadi*, ya'ni maktab doimiy emas, balki davriy xotira strukturasidir. Bu yerda Henri maktabni real obyekt sifatida emas, balki vaqt ichida muzlab qolgan sezgi maydoni sifatida qayta quradi. "The Phantom Lollipop Lady" she'rda bu poetik model ijtimoiy figuraga ko'chiriladi. *Lollipop lady* dastlab real inson sifatida tasvirlanadi: u bolalarni yo'ldan o'tkazadi, ularga shirinlik beradi, kuladi. Ammo she'r davomida u asta-sekin ijtimoiy funksiyasidan ajralib, xotira timsoliga aylanadi. Bu transformatsiya juda muhim: Henri bu orqali ijtimoiy rollar yo'qolganda ham, ular xotira orqali yashashda davom etishini aytmoqchi bo'ladi. She'rda maktab yopilgach ham lollipop lady *crossing*ni davom ettiradi. Bu yerda *crossing* so'zi ikki qatlamli ma'no kasb etadi: bir tomondan yo'lni kesib o'tish, ikkinchi tomondan hayot va o'lim chegarasini kesib o'tish. Natijada u oddiy ijtimoiy figura emas, balki liminal (chegaraviy) mavjudotga aylanadi. Bu liminal holat antropologiyada o'tish marosimlari bilan bog'liq bo'lib, subyektning bir holatdan boshqasiga o'tishini bildiradi. Fransuz faylasufi Rikyor xotirani o'tmish tajribasining hozirgi ongdagi rekonstruksiyasi sifatida talqin qiladi, Henri she'ridagi lollipop lady ham aynan shu mexanizm orqali yashaydi: u real hayotda yo'q, lekin xotira va til orqali qayta yaratilgan. Bu maktabda darslar o'tilmaydi, lekin ularning ruhi qoladi; odamlar yo'q, lekin ularning xotirasi harakatda davom etadi; joylar bo'sh, lekin sezgi bilan to'la. Shu tariqa Henri ijodi Liverpool shoirlari orasida eng "jim", ammo eng chuqur metaforik maktab poetikasini shakllantiradi.

Adrian Henri she'riyatida maktab xotira va sezgi orqali qayta tiklangan "jim" makon sifatida namoyon bo'lsa, Rojer MakGaf ijodida u keskin o'zgarib, harakatdagi, shovqinli va grotesk darajada buzilgan ijtimoiy tizimga aylanadi. Agar Henri maktabni vaqt ichida muzlatib, uning nomavjud qatlamlarini ochsa, MakGaf uni aynan faol holatida, lekin absurd darajaga yetkazilgan shaklda dekonstruksiya qiladi. Shu tariqa Liverpool shoirlari ichida maktab poetikasining ikkinchi, yanada keskin va satirik modeli yuzaga keladi. "The

*Lesson*” she’ri bu modelning eng yorqin ifodasidir. She’r boshida berilgan savol: “Should there be capital punishment in schools?” o’quvchini darhol ijtimoiy-axloqiy diskursga olib kiradi. Ammo keyingi voqealar bu savolning jiddiy muhokamasi emas, balki uning ironik portlatilishi ekanini ko’rsatadi. Sinfxonadagi tartibsizlik (*chaos*) va *havocwreakers* – ikki leksik birlikning qo’shilishi orqali yaratilgan okkazionalistik birlik – orqali o’quvchilar haddan tashqari tartibsiz kuch va epik darajadagi vayronkor subyekt sifatida tasvirlanadi. Bu esa o’z navbatida o’qituvchining keyingi zo’ravonligini absurd tarzda oqlovchi badiiy atmosfera yaratadi. She’r davomida o’qituvchi tomonidan amalga oshiriladigan zo’ravonlik aktlari – bo’g’ish, kesish, otish – realistik emas, balki karnavalesk grotesk shaklida beriladi. Bu yerda Baxtin ta’riflagan inversiya printsipi to’liq ishlaydi: rasmiy ijtimoiy ierarxiyalar va me’yorlar vaqtinchalik bekor qilinadi – maktab intizomi zo’ravonlikka, bilim beruvchi figura destruktiv kuchga, dars jazoga, o’quvchilar esa passiv qurbonlarga aylanadi. She’rning kulminatsion nuqtasi – *Now let that be a lesson* semantik jihatdan ikki qatlamli bo’lib, *lesson* so’zi ham *dars*, ham *saboq* ma’nolarini anglatadi. Natijada o’qituvchi zo’ravonlikni pedagogik akt sifatida legitimatsiya qiladi va bu holat maktabni intizomiy hokimiyat instituti sifatida namoyon etadi. M. Fukoga ko’ra, intizomiy tizimlar “itoatkor tanalar”ni ishlab chiqarish orqali ijtimoiy nazoratni ta’minlaydi. MakGaf she’rida esa ushbu mexanizm absurd darajada mubolag’alashtiriladi, ya’ni tartib tanani yo’q qilish orqali o’rnatiladi. Agar “*The Lesson*” maktabni tashqi, institutsional zo’ravonlik orqali ochsa, “*First Day at School*” she’ri bu tizimni bola ongining ichki tajribasi orqali ko’rsatadi. Bu yerda maktab qo’rquv va begonalashuv makoniga aylanadi: bola uchun maktab *millionbillionwillion miles from home* – o’lchab bo’lmas uzoqlikda joylashgan. Bu okkazionalizm sonlarning cheksiz qo’shilishi orqali psixologik masofani lingvistik shaklga aylantiradi. She’r davomida maktab elementlari til orqali deformatsiyalanadi: *lessins, classrooms, tea-cher*. Ayni birliklar oddiy xatolik emas, balki bolaning idrok jarayonini aks ettiruvchi kognitiv okkazionalizmlardir. Masalan, bolakay sinfxonani *classrooms* – (*classrooms* o’rniga) shaffof, kuzatiladigan va yopiq makon – deya tasavvur qiladi va bu ta’rif maktabni nazorat ostidagi hudud sifatida ko’rsatsa, *lessins* so’zi darsni *slimy – shilimshiq* tarzida tasvirlaydi va bola uchun bilim abstrakt tushuncha emas, balki fizik va noxush obyektga aylanganini bildiradi. *Tea-cher* so’zi o’qituvchi figurasini morfologik bo’linish orqali kulgili darajaga tushirib, avtoritet dekonstruksiyasini yuzaga keltiradi. Til bu yerda faqat ifoda vositasi emas, balki qarshilik mexanizmi. Bola normativ tilni egallamagan, lekin aynan shu “nuqson” orqali u maktab tizimini ochib beradi. Shoir tilning buzilishi orqali tizimning buzilishiga urg’u beradi.

Adrian Henri maktabni “bo’shab qolgan” makon sifatida qayta tiklasa, Rojer MakGaf uni harakatdagi absurd va zo’ravon tizim sifatida fosh etadi. Brayn Petten esa bu ikki yo’nalishni yangi bosqichga olib chiqib, maktabni eng avvalo til orqali quriladigan va aynan til orqali buziladigan hodisa sifatida talqin qiladi. “*Gust becos I cud not spel*” she’rida butun poetik tuzilma ataylab buzilgan imlo, fonetik soddalashtirish va

deformatsiyalangan soʻzlarga asoslanadi. Bir qarashda bu bolalarcha savodsizlikka taqlid qilishdek tuyuladi, ammo aslida bu ongli poetik strategiya boʻlib, normativ til tizimining oʻzini shubha ostiga qoʻyadi. *Gust, becos, cud, spel, riting, laffed* kabi birliklar standart ingliz tilining fonetik parchalanishi natijasida yuzaga kelgan boʻlib, ular orqali matn oʻzining “notoʻgʻriligini” namoyish etadi. Bu yerda okkazionalizm anʻanaviy maʼnoda yangi soʻz yaratishdan koʻra kengroq hodisa – grafik va fonetik okkazionalizm sifatida namoyon boʻladi, yaʼni mavjud til meʼyorining buzilishi orqali yangi semantik effekt hosil qiladi. Ayniqsa, *Figgymisgrugifooniyn* kabi mutlaqo sunʼiy, hech qanday lugʻaviy maʼnoga ega boʻlmagan birlik sheʼrning markaziy nuqtasiga aylanadi. Natijada til bu yerda maʼno yetkazish funksiyasini yoʻqotgan, referensial tizimdan uzilgan va hokimiyatni sinovdan oʻtkazuvchi oʻyin maydoniga aylangan hodisa sifatida namoyon boʻladi. Sheʼrning syujetida ham keskin inversiya kuzatiladi: ilgari imlo xatolari uchun kulgi boʻlgan bola keyinchalik *dictaterga* aylanadi. Bu soʻzning oʻzi ham okkazional deformatsiya (*dictator* oʻrniga) boʻlib, hokimiyatning oʻzi ham til kabi “notoʻgʻri” ekanini anglatadi. Natijada u boshqalardan oʻzidek yozishni talab qiladi, aks holda jazolaydi. Bu jarayon MakGafdagi grotesk zoʻravonlik bilan hamohang, ammo Petten uni lingvistik darajaga koʻchiradi: zoʻravonlik tanaga emas, tilga nisbatan qoʻllanadi. Mishel Fuko diskurslarni voqelikni oddiy tasvirlovchi tizim emas, balki uni shakllantiruvchi va tartibga soluvchi mexanizm sifatida talqin qilsa, yaʼni til va bilim hokimiyat bilan uzviy bogʻliqlikda “haqiqat rejimlari” orqali ijtimoiy normalarni ishlab chiqarsa, Petten sheʼrida ham shu jarayon kuzatiladi: tilni belgilash huquqi hokimiyatni belgilaydi, “notoʻgʻri” deb topilgan til esa subyektni tizimdan chiqaradi va keyinchalik aynan shu chetlangan shakl normaga aylanishi mumkin. Biroq Petten poetikasi faqat destruksiya bilan cheklanmaydi. “*Geography Lesson*” sheʼrida u butunlay boshqa, ancha lirizmga yaqin ohangga oʻtadi. Bu yerda maktab yana paydo boʻladi, lekin bu safar u orzu va tasavvur ishlab chiqaruvchi makon sifatida talqin qilinadi. Oʻqituvchi obrazida ikki qarama-qarshi qatlam mujassam: bir tomonda tor, kulrang hayot (*narrow and grey house*), ikkinchi tomonda esa tasavvurdagi rang-barang dunyo (*green leaves burning on an orange tree*). Bu kontrast orqali Petten maktabni paradoksal institut sifatida koʻrsatadi: u oʻquvchilarga dunyoni ochadi, lekin oʻzi bu dunyodan tashqariga chiqa olmaydi. Oʻqituvchi butun umr xaritalar orqali sayohat qiladi, lekin real safarga chiqmaydi. Bu holat taʼlim tizimining asosiy ziddiyatini ochadi: bilim mavjud, ammo tajriba yoʻq. Sheʼrning eng taʼsirli jihatlaridan biri oʻqituvchining oʻlimidan keyin uning nomi unutilishi, ammo u bergan *darsning* saqlanib qolishidir. Bu yerda *lesson* tushunchasi yana ikki qatlamli maʼno kasb etadi: u faktlar yigʻindisi emas, balki istak va tasavvurni shakllantiruvchi kuchdir. Oʻquvchi keyinchalik oʻqituvchi koʻrmagan joylarga boradi, demak, bilim emas, balki orzu meros boʻlib qoladi. Pol Rikyor xotirani oʻtmishni oddiy qayta tiklash emas, balki uning maʼnosini hozirgi tajriba orqali qayta shakllantirish jarayoni sifatida talqin qilganidek, “*Geography Lesson*” sheʼrida ham ayni mexanizm kuzatiladi: oʻqituvchi fizik jihatdan yoʻqoladi, biroq uning

ta'siri va uyg'otgan tasavvurlari xotirada davom etib, subyektning idrokini shakllantiradi. Shu tariqa Petten ijodida til va maktab o'rtasidagi munosabat ikki qarama-qarshi yo'nalishda rivojlanadi: bir tomondan til buziladi, deformatsiyalanadi va hokimiyatga qarshi qurolga aylanadi ("*Gust becos I cud not spel*"), ikkinchi tomondan esa til orqali orzu va xotira saqlanadi ("*Geography Lesson*"). Bu ikki yo'nalish bir-birini inkor etmaydi, balki to'ldiradi: biri tizimni buzadi, ikkinchisi esa uning ichida yashirin qolgan insoniy ma'noni ochadi.

**Xulosa.** Liverpul shoirlari Adrian Henri, Rojer MakGaf va Brayn Petten ijodida maktab obrazi an'anaviy didaktik yoki nostalgik tasvirdan tubdan farq qiladi. Tahlil qilingan she'rlar shuni ko'rsatadiki, maktab shoirlar uchun oddiy ta'lim maskani emas, balki til, hokimiyat, xotira va bolalik tajribasi kesishgan murakkab madaniy makondir. U xotirani saqlaydi (Henri), hokimiyatni ochib beradi (MakGaf) va unga qarshi chiqadi (Petten). Xulosa qilib aytganda, Henri, MakGaf va Petten ijodi maktabni yagona, barqaror tushuncha sifatida emas, balki ko'p qatlamli, ziddiyatli va doimiy o'zgaruvchan fenomen sifatida ko'rsatadi. Aynan shu ko'p qirralilik ular ijodining dolzarbligi va nazariy ahamiyatini belgilaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Foucault M. Discipline and Punish: The Birth of the Prison. – New York: Pantheon Books, 1977. – 333 p.
2. Foucault M. The Archaeology of Knowledge. – London: Routledge, 2002. – 256 p.
3. Ricoeur P. Memory, History, Forgetting / trans. by K. Blamey, D. Pellauer. – Chicago: University of Chicago Press, 2004. – 642 p.
4. The Mersey Sound. UK. Penguin Books. 1967. 144 p.
5. Бахтин М. М. Творчество Франсуа Рабле и народная культура Средневековья и Ренессанса. – Москва: Художественная литература, 1990. – 543 с.
6. Рикёр П. Память, история, забвение / пер. с фр. – Москва: Издательство гуманитарной литературы, 2004. – 728 с.
7. Фуко М. Надзирать и наказывать. Рождение тюрьмы / пер. с фр. – Москва: Ad Marginem, 1999. – 479 с.